

ALEKSANDR SERGEYVICH PUSHKINNING ASARLARIDA MUHABBAT TIMSOLI

Shaxobiddinova Yulduz Shokirjon qizi

Ilmiy rahbar: Ochilova Nafisa Usmonovna

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)

Annotatsiya: Maqolada, rus adabiyoti durdonasi hisoblangan Aleksandr Sergeyevich Pushkinning hayoti va ijodi hamda shoirning qalamiga mansub “Yevgeniy Onegin” she’riy-romani, uning obrazlar tizimi, asardagi bosh obraz bo‘lgan opa-singillar Tatyana va Olga Larinalarning harakter xususiyatlari haqida atroficha fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: She’riy-roman, shoir, rus adabiyoti, she'r, obraz, Tatyana, Olga, Yevgeniy Onegin, Lenskiy, personaj.

Abstract: In the article, the life and work of Alexander Sergeyevich Pushkin, considered a masterpiece of Russian literature, as well as the poem-novel "Eugene Onegin" written by the poet, his system of images, and the character traits of the sisters Tatiana and Olga Larina, the main characters in the work, are discussed.

Key words: Poem-novel, poet, Russian literature, poem, image, Tatyana, Olga, Yevgeny Onegin, Lensky, character.

Аннотация: В статье рассмотрены жизнь и творчество Александра Сергеевича Пушкина, считающегося шедевром русской литературы, а также стихотворение-роман «Евгений Онегин», написанное поэтом, его система образов, особенности характеров сестер. Речь идет о Татьяне и Ольге Лариных, главных героях произведения.

Ключевые слова: Поэма-роман, поэт, русская литература, поэма, образ, Татьяна, Ольга, Евгений Онегин, Ленский, персонаж.

Pushkinning rus madaniyati taqdirdidagi roli benihoya buyuk. U yangi rus adabiyotiga asos solish bilan birga rus adabiy tilining ham shakllanishiga ulkan hissa qo'shdi. Rus adabiyotida realizm va xalqchillik tamoyillarining, qator she'riy janrlarning shakllanishi va taraqqiyoti Pushkin nomi bilan chambarchas boglik, Pushkinning rang-barang ijodi nafaqat keyingi rus adabiyoti, balki musiqa, teatr, balet, rang-tasvir singari san'at turlarining ham rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Boshqa qardosh adabiyotlar qatori XX asr o'zbek adabiyotining taraqqiyotida ham Pushkin ijodining ta'siri sezilarlidir. Ulug' rus adibi, yangi rus adabiyotining asoschisi, dramaturg va nasr yozuvchi Aleksandr Sergeyevich Pushkin Moskvaning Sant-Peterburg shahrida dunyoga kelgan. Ota-onasi yosh Pushkinning buvisi Mariya Alekseyevna va enagasi Arina Rodionovna tarbiyasiga topshirgan. Uning amakisi Vasiliy Lvovich o'sha davrning ko'zga ko'ringan shoirlardan bo'lib Pushkinlarnikiga taniqli shoirlar tez-tez mehmon bo'lib kelardi. Bu muhit Pushkinda she'riyatga havas uyg'otdi. Pushkinda nafis so'zga mehr-muhabbatning paydo bo'lishida rus xalq qo'shiqlari hamda ertaklarini yaxshi bilgan enagasi Arina Rodionovnaning ta'siri, ayniqsa, kattadir. O'sha davrning eng nufuzli o'quv yurtlaridan biri — Peterburg yaqinidagi Sarskoye selo litseyida o'qish Pushkinning shoir va erksevar

inson sifatida shakllanishida muhim omil bo‘lgan. Pushkin litseyni tugatgach, Peterburgga ko‘chib borgan va tashki ishlar kollegiyasida kotib lavozimida ishlagan. U Peterburgda xizmat qilgan yillar Rossiyaning tarixiy taraqqiyoti uchun muhim bir davr edi. Pushkining ko‘plab asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilingan („Boris Godunov“, „Dubrovskiy“, „Kavkaz asiri“ Cho‘lpon tomonidan (1936-37), „Yevgeniy Onegin“ Oybek tomonidan (1937), „Boqchasarov fontani“ Usmon Nosir tomonidan (1937), „Kapitan qizi“ Abdulla Qahhor tomonidan (1939), „Ruslan va Lyudmila“ Mirtemir tomonidan (1948) tarjima qilingan). 20-yillarning 2yarmida Pushkin „Yevgeniy Onegin“ ustidagi ijodiy iishini davom ettirdi. She’riy romanning 1833-yilda to‘la holda nashr etilishi rus adabiyoti tarixida ulkan voqeа bo‘ldi. Garchand she’riyatning bu janri rus adabiyotida keyinchalik izchil davom ettirilmagan bo‘lsada, bu asarda kashf etilgan yangi realistik tasvir metodi va yangi estetika tamoyillari rus adabiyetining keyingi taraqqiyoti uchun g‘oyat katta ahamiyatga molik bo‘ldi. Pushkin asarda polifonik tasvir usulining shunday yo‘llarini topdiki, ular vo-qelikni keng qamrab olish, muhim hayotiy muammolarni tasvir doirasiga olib kirish, epik va lirik ibtidolarni uzviy lashtirish imkonini berdi. Natijada romanda Pushkin yashagan davrning muhim masalalari o‘z in’ikosini topdi, o‘sha davrda keng tarqalgan kishilar harakteri tarixiy, ijtimoiy va maishiy sharoit fonida zo‘r mahorat bilan tasvir etildi. Shoirning Yevgeniy Onegin romanı she’riy roman hisoblanadi. Onegin rus adabiyotining klassikasi hisoblanib va bu qahramon bir qator rus adabiy qahramonlari uchun namuna bo‘lib xizmat qildi. Asar 1825 — 1832-yillarda ketma-ket nashr etilgan. Birinchi to‘liq nashri 1833-yilda chiqarilgan bo‘lib, hozirda qabul qilingan versiya 1837-yilgi nashrga asoslangan. Rus adabiyoti durdonasi bo‘lgan V. Belinskiy ta’biri bilan aytganda “...rus adabiyotining ensiklopediyasi” bo‘lgan shoh asar “Yevgeniy Onegin” she’riy romanida ham ikki xil tabiatli opa va singil obraziga to‘xtalib o‘tilgan. Bular Tatyana va Olga obrazlari hisoblanadi. Asarga diqqat qaratadigan bo‘lsak, muallifning o‘zi ham Tatyana va Olganing tashqi ko‘rinishi, qolaversa, harakterlarini juda ko‘p o‘rinlarda taqqoslab o‘tganligini ko‘rishimiz mumkin. Roman ohangi tarbiyali, dunyoviy va samimiy bo‘lgan hikoyachi (Pushkining ommabop obrazining yengil uydurma varianti) tomonidan hikoya qilinadi. Hikoyachi, odatda, ushbu ijtimoiy va intellektual dunyoning jihatlarini kengaytirish uchun ba’zida romandan chetga chiqadi. Roman uslubi personajlarning rivojlanishiga imkon beradi va nisbatan soddaligiga qaramay, syujetning dramatikligini ta’kidlaydi. Kitob she’riy hikoyaning badiyiligi, shu bilan birga hayot, o‘lim, sevgi, bezovtalik, konventsiya va ehtirosning uyg‘unlashganligi uchun hayratga soladi. Shuningdek, XIX asr rus adabiyotining buyuk shoiri Pushkin sharqshunoslikka, sharq adabiyotiga oid asarlarni o‘qib o‘rgangani, ulardan ta’sirlanib asarlar yozgani bizga ma’lum. Bu asarlar shoir turli ilmiy va adabiy manbalar orqali O‘rta Osiyo haqida ma’lum bir tasavvurga ega bo‘lgan degan xulosaga olib keladi. O‘rta Osiyo xalqlari haqidagi ma’lumotlar shoir ijodining dastlabki davrlaridayoq uchraydi.

Mano shoirning 1819 yil iyul oyida yozilgan “Orlovga” she’ri (u birinchi marta “Severnaya zvezda” almanaxida 1829 yilda e’lon qilingan).

Pushkin bu she’rda:

“V buxarskoy shapke i v xalate

Ya budu pet moix bogov”

deb yozadi. Demak, shoirga 20 yoshidayoq Buxoro, buxoroliklar, ularning ki-yinish tarzi ma'lum bo'lgan va u o'zini buxoroliklar libosida tasavvur qila olgan. Pushkin bu davrda buxoroliklar deganda O'rta osiyolik savdogarlarni tushungan, ular olib kelgan savdo mollari orqali ularning kiyinish tarzini tasavvur qilgan deb taxmin qilish mumkin. Pushkinning buxoroliklar haqidagi tasavvuri tobora mukammallahib borgan. Shoir "Yevgeniy Onegin" (asar ustida 1823-1830 yillarda ish olib borgan) da ham buxoroliklarni eslatib o'tadi. Pushkin dostonda Peterburg manzarasini chizar ekan "Buxoroliklarning ko'k polizlari" degan iborani ishlatadi. "Orlovg'a" she'rida buxoroliklar savdogar sifatida ko'ringan bo'lsa, "Yevgeniy Onegin"da bobodehqon qiyofasida namoyon bo'ladilar. Pushkin buxoroliklar haqida tasavvurgagina ega bo'lib qolmay, ularni o'z ko'zi bilan ko'rgan. Qaysidir baxtiyor buxorolik – tujor vatandoshimiz buyuk shoir bilan yuzma-yuz gaplashgani sezilib turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.S.Pushkin. Yevgeni Onegin.G'.G'.Toshkent-2019.
2. Хатамов Н, Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-узбекча лугати. -Тошкент, 1979.
3. Иззат Султон. Адабиётшунослик назарияси.- Тошкент, 1986.
4. DilmurodQuronov. Adabiyotshunoslikkakirish. -T.2008.
5. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. - Тошкент: Узбекистан, 2002.